**TASDIQLAYMAN:**
"Navoiyazot" AJ
boshqaruv raisi v.b.
____________ O.Sh. Temirov
"08" 08 2022 y.

"Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati tomonidan foydalaniladigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish yuzasidan

**TEXNIK TOPShIRIQ**

| T/r | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati | Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 1. | Buyurtmachining nomi | "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati<br>Manzil: 210105 O'zbekiston Respublikasi Navoiy shahri, Navoiy-5, Tel/faks: +998 79 223 75 80, +998 79 229 22 36,<br>Web-sayt: www.navoiyazot.uz, e-mail: office@navoiyazot.uz,<br>H/r: 2021 0000 0004 2966 2001, "Sanoatqurilishbank" ATB Navoiy mintaqaviy bank xizmatlari ofisi, MFO 00207, INN 200 002 933, OKED 20151 |
| 2. | Pudratchining nomi | Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazadigan va belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan tashkilotlar o'rtasida o'tkazilgan tanlov asosida aniqlanadi. |
| 3. | Xizmat turi | Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazish |
| 4. | Ekspertiza obyekti | "Navoiyazot" AJ kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish zavodining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi va unga ilovalar (rus tilida):<br>1. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi -288 varaq;<br>2. Hisob-kitob tushuntirish xati – 348 varaq;<br>3. Axborot varag'i – 44 varaq. |
| 5. | Xizmatlarni amalga oshirish uchun asos | - O'zbekiston Respublikasining 28.09.2006-yildagi "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi 57-sonli Qonuni;<br>- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.12.2008-yildagi 271-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish va davlat organlariga, jamoat birlashmalari va fuqarolarga taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom";<br>- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.10.2018-yildagi 784-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to'g'risidagi nizom". |
| 6. | Xizmat narxining eng ko'p miqdori | 150 000 000 (bir yuz ellik million) so'm (15 % qo'shilgan qiymat solig'i bilan) |

| T/r | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati | Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 7. | Moliyalashtirish manbalari | "Navoiyazot" AJning o'z mablag'lari |
| 8. | Xizmat ko'rsatuvchiga qo'yiladigan talablar | 1. Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazuvchi tashkilot sifatida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi.<br>2. Sanoat xavfsizligi ekspertizasini amalga oshiruvchi tashkilot sifatida kamida 5 yillik ish tajribasi bo'lishi.<br>3. Kimyo, neft-kimyo, neft va gazni qayta ishlash sanoati hamda portlash-yonish xavfi mavjud kimyoviy xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ish tajribasi bo'lishi. |
| 9. | Xizmatlarni amalga oshirish tartibi | 1. Xizmat shartnoma asosida PUDRATChI tomonidan bajariladi.<br>2. BUYURTMAChI shartnomani olgan kundan boshlab 10 kun ichida tuzadi va PUDRATChI manziliga qaytaradi. Shartnoma bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, shartnomani olgan Tomon boshqa Tomonni e'tirozlar to'g'risida 10 kun ichida xabardor qilishi shart.<br>3. BUYURTMAChI shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 10 kun ichida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda PUDRATChIga shartnoma narxining 50 % miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi.<br>4. Dastlabli ma'lumotlar BUYURTMAChI tomonidan elektron shaklda (PDF formatida) shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 kun ichida PUDRATChIga taqdim etiladi.<br>5. Ekspertizadan o'tkazish muddati shartnoma bo'yicha oldindan to'lov amalga oshirilgan va dastlabki ma'lumotlar taqdim etilgan kundan boshlab 3 oydan oshmasligi kerak. |
| 10. | Xizmatlarni ko'rsatish va ularning natijalari xavfsizligiga qo'yiladigan talablar | 1. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun PUDRATChI va BUYURTMAChI O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.<br>2. Barcha nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasidagi muzokaralar orqali hal qilinadi. Muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda, yuzaga kelgan nizo javobgar turgan joydagi O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudiga yuboriladi. |
| 11. | Alohida shartlar | - |

Sanoat va radiatsiya xavfsizligi xizmati boshlig'i T.F. Turabov

**Kelishilgan:**
Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinbosari O.J. Mavlonov

Bosh hisobchi X.S. Tilavov

Texnik nazorat bo‘limi boshlig‘i N.T. Ramazonov

Yuridik bo‘limi boshlig‘i Sh.M. Xabibulloyev